Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321207

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

15. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf). O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

16. Qosimova K, Matjonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. "Ona tili o'qitish metodikasi".

17. Abdullayeva F.N., Shodiyeva M.A. Ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o'rgatishning ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali.- 2024, noyabr

KONSTITUTSIYA ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Abdug'ofurov Muhammadqodir Abdunosir o'g'li
ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI Magistratura bo'limining
Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi Yo'nalishi bo'yicha I bosqich magistranti

Annotatsiya : Ushbu maqolada mustaqillik sharofati bilan vatanimizda milliy qonunchilik tizimining yaratilishi va uning mamlakatimiz taraqqiyotining turli jabhalaridagi integrastiyasi , qonunchilik tizimining jamiyat hayotida yangi sifat o'zgarishining boshlanishiga , izchillik , aniqlik , ustuvorlik tamoyillari asosidagi qonunchiligi tavsifiga bag'ishlanadi .

Kalit so'zlar : Madaniy me'ros , o'z res kons 49- modda , madaniy meros obyektlari haqida qonunchilik , shaharlarning yubileylari , nomlarning tiklanishi , milliy qadriyatlar va boshqa...

Kirish: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar negizida qonun ustuvorligining ta'minlanganligi turadi . Qonun ustuvorligi har bir sohaning jadal rivojini ta'minlashi bilan ham dolzarb hisoblanadi . Bu ustuvorlik bir qator sohalarda jumladan: fan , ta'lim , sport , san'at , madaniyat kabi eng muhim bo'g'inlarda o'zini ko'rsatdi . Mamalakatimiz mustabid tuzum hukmronligi paytida o'z milliyligini yo'qotgan tarixiy xotirasini tiklashga ehtiyoj his qilgan edi .

1991 yil 31 avgust mustaqillikning qo'lga kiritilishi mamlakatimiz ma'naviy va madaniy hayotida yangi davrni boshlab berdi .

1992 – yil 8 dekabr 12- chaqiriq O'zbekiston Respublkasi Oliy kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan va unda mamlakatning huquqiy jihatdan mustahkamligini ta'minladi . [171]

Jumladan uning respublika moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishga qaratilgan moddalari respublika milliy tarixi tiklanishining boshlanishida muhim rol o'ynadi , Konstitutsiyaning IX bob fuqarolarning burchlari 49-modda. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir. [172]

Belgilab qo'yilishi respublika nomoddiy madaniy meros obyektariga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga olib keldi . Konstitutsiyaning qabul qilinishi nafaqat moddiy meros uchun balki nomoddiy madaniy meros muhofazasiga qaratilgan boshqa normativ huquqiy hujjatlarda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi chunonchi:

2001 yil 30 avgustda "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan.

[171] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ozbekiston_Respublikasining_Konstitutsiyasi

[172] https://president.uz/oz/pages/view/constitution?menu_id=10

Published: 23.12.2024

Cite this article: Abdug'ofurov Muhammadqodir Abdunosir o'g'li (2024). Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321207

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi “Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foylalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish ishlarini yangi bosqichga ko‘tardi, tarixiy va madaniy yodgorliklami har tomonlama o‘rganish, ommalashtirish hamda targ‘ib etishga yordam berdi. [173]

Buning natijasi o‘laroq 1999 - yilda davlatimiz raxbarining tashabbusi bilan “ UNESCO” tomonidan xalq og‘zaki ijodining nodir durdonasi bo‘lmish “Alpomish” dostonining 1000 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonandi . Xiva , Buxoro , Samarqand , Toshkent , Qo‘qon , Marg‘ilon shaharlari yubileylarining o‘tkazilishi tarixiy shaxslarning nomlari tiklanishida ham konstitutsiyaning o‘rni beqiyos .

Xiva shahri 1990-yil 12-dekabrda UNESCO Madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan. 1997-yilda shaharning 2500 yillik yubileyi nishonlangan.Bu uzun tarix davomida Xiva ko‘plab turkiy davlatlarning markazi bo‘lgan. U 2020-yilda Turksoy xalqaro tashkiloti tomonidan Turk dunyosining madaniy poytaxti, deb e’lon qilingan.[174]

Samarqand shahrining 2007-yil 25-avgustda Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi nishonlandi. 2019-yilda Samarqandning Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasiga (WTCF) a'zo bo‘lishi, uning kelajakda jahon turizm markaziga aylanishidan dalolat beradi. [175]

1996-yil YUNESKO Buxoroni jahon madaniy merosi hisoblanuvchi shaharlar safiga qo‘shganligi va muhofazaga olganligini e’lon qildi. Buxoro – jahonning eng qadimiy va tarixiy-me’moriy obidalarga boy go‘zal shaharlaridan biri. 1997-yil shaharning 2500-yillik yubileyi xalqaro miqyosda nishonlandi [176]

Bu va boshqa madaniy sohaga yo‘naltirilgan islohotlarning yangi to‘lqini mamlakatiizning prezidenti rahnamoligida ham amalga oshirilmoqda “O‘zbekiston Madaniy me’rosi yangi renessans asosi VII xalqaro kongressi “ doirasida 2023- yilning 5-8-noyabr kunlari Samarqand shahridagi Silk Road Samarkand sayyohlik majmuasi hududida bo‘lib o‘tgan kongress bevosita O‘zbekiston hukumatining ko‘magida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Madaniy meros agentligi, Kinematografiya agentligi, UNESCO ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, IRSIKA, TURKSOY singari mahalliy hamda xorijiy idoralar va tashkilotlar hamkorligida tashkil qilindi. Ta’kidlash lozimki, Kongress tadbirlariga ERIELL Group neft-servis guruhi homiylik qildi.

Kongressda dunyoning 40 mamlakatidan 300 dan ortiq olimlar, ekspertlar, yirik muzey va kutubxona rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlar tashrif buyurishdi. Ahamiyatlisi, ilk bor kongressga turkiy tilli davlatlarning yetakchi kino va media tashkilotlari rahbarlari ham taklif etildi.[177]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 01.05.2023 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Konstitutsiyaviy Qonun referendum yakunlari O‘zbekiston

[173] «NOMODDIY MADANIY MEROS»

[174] https://president.uz/oz/lists/view/5095?fbclid=IwAR3k2L_DBRDD5NtUUmsKcAYGL6LZL5UO6UB4Wz0IHJK7jr3NJJB4bTFOE08

[175] https://lex.uz/docs/-1161968

[176] https://www.mirarab.uz/ruknlar/1226

[177] https://oyina.uz/uz/article/2220

Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 2023 yil 1 mayda kuchga kirdi. [178]

Yangi tahrirdagi konstitutsiyaga bir qator o‘zgartishlar kiritilgan . Bu ham tom ma’noda fuqarolarning qonunchilikka bo‘lgan ishonchining yanada ortishiga xizmat qiladi .

Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko‘ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan. [179]

Xulosa: Bugun vatanimizning jadal taraqqiyotiga sabab bo‘lgan omilllarni e’tirof etar ekanmiz bu borada milliy qonunchilik tizmining ishlab chiqilishi va uning amaliyotga tatbiq etilishi orqali taraqqiyotning rivojiga qo‘shgan hissasini beqiyos desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi . Darhaqiqat milliy qonunchilik tizimi vatanimizning mustaqillik qatorida qo‘lga kiritgan eng katta yutuqlaridan biridir . Konstitutsiya vatanimizning porloq istiqbolini belgilab qolmasdan , rivolanish tamoyillarini ham belgilab berdi bu esa pirovardida bugungi respublika hayotining har jabhasida ustuvorlik , aniqlik , izchillik , jahon hamjamiyatiga faol integratsiyaga xizmat qiladi .

Bir so‘z bilan aytganda konstitutsiya O‘zbekistonning mintaqa geografiyasida mustahkam o‘rin egallashi va qonunchiligining prisipialligini ta’minladi .

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati:

1.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ozbekiston_Respublikasining_Konstitutsiyasi

2.https://president.uz/oz/pages/view/constitution?menu_id=10

3.«NOMODDIY MADANIY MEROS»

4.https://president.uz/oz/lists/view/5095?fbclid=IwAR3k2L_DBRDD5NtUUmsKcAYGL6LZL5UO6UB4Wz0IHJK7jr3NJJB4bTFOE08

5. https://lex.uz/docs/-1161968

6. https://www.mirarab.uz/ruknlar/1226

7. https://oyina.uz/uz/article/2220

8. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/yangi_tahrirdagi_konstituciya_kuchga_kirdi

9. https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish

O‘ZBEKISTONDA ISLOXOTLAR YO‘NALISHLARI

Maxkamov Saidafzal Saidkamolovich
Farg‘ona politexnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
saidafzalmaxkamov0205@gmail.com

178 https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/yangi_tahrirdagi_konstituciya_kuchga_kirdi

179 https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish